

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVALAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SH.I. SHAMSIYEV

## **Xor va xorshunoslik. Dirijyorlik asoslari**

(O'quv qo'llanma)



Buxoro 2023

"BUKHARA HAMD PRINT" nashriyoti

---

**UO'K 790.630.432(072)**

**KBK 86.312.5**

**Sh 65**

Shamsiyev Sherzod Istamovich,

“Xor va xorshunoslik. Dirijyorlik asoslari” [Matn] : o‘quv qo‘llanma /

Sh.I.Shamsiyev.- Buxoro: “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 2023.-

144 b.

*Ushbu qo‘llanma musiqa, san’ati yo‘liga qadam qo‘ygan talabalarga Xor va dirijyorlik san’ati sirlarini o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy bilimlar bilan birgalikda amaliy ko‘nikmalarni egallashga katta ahamiyat berilgan. Xor va dirijyorlikning dastlabki holatidan boshlab, bosqichma — bosqich mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi mavzular, musiqiy namunalar, O‘zbekistonning taniqli dirijyorlari ijodiy faoliyatları keng yoritilgan. Mazkur qo‘llanma madaniyat va san’at oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan, shuningdek, undan o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilari ham foydalanishlari mumkin.*

**Mas’ul muharrir:**

**Olimxo‘ja Karimov**, BuxDU, San‘atshunoslik fakulteti, “Musiqa ijrochiligi va madaniyat” kafedrasи dotsenti.

**Taqrizchilar:**

**Said Bolta-Zoda Saidiy**, NavDPI, “Musiqa ta’limi” kafedrasи professori, s.f.n. O‘zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zosi, kompozitor Xalqaro “Antiquye World” ilmiy Akademiyasi akademigi

**Jo‘rabek Yarashev To‘rayevich**, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

*Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 maydagi 232-sonli buyrug‘iga asosan nashr qilishga tavsiya etilgan. Ruxsatnomasi qayd raqami № 232-698.*

**ISBN 978-9943-9667-6-5**

---

## **Annotatsiya**

“Xor va xorshunoslik. Dirijyorlik asoslari” fani talabalarning o‘quv jarayonida olgan bilimlarini – har tomonlama rivojlantirish, tahlil qilish, xor bo‘lib kuylash jarayonida jamoa ijrochiligi bo‘yicha talabalarning malakalarini shakllantirish va uni boshqarish texnologiyasi bo‘yicha mukammal bilim berish hamda dirijyorlik sirlarini qo‘llab, badiiy-ijro uslublaridan foydalanish va ijrochilik mahoratini o‘stirishdan iborat.

## **Аннотация**

Предмет “Хор и хороведение. Основы Дирижирование” - это приобретение студентами знаний в учебном процессе - навыков анализа хоровых произведений, звучания исполнения в хоре, формирование у учащихся навыков хорового исполнения, умения петь в группе и управлять ею, а также используя секреты дирижирования, положительно влияет на использование художественно-исполнительских приемов и развитие исполнительских навыков.

## **Annotation**

The subject “Choir and Choral Studies. Fundamentals of Conducting” is the acquisition of knowledge by students in the learning process - the skills of analyzing choral works, the sound of performance in the choir, the formation of students' skills in choral performance, the ability to sing in a group and control it and using the secrets of conducting and conducting, has a positive effect on the use of artistic and performance techniques and the development of performance skills.

## KIRISH

Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko‘plab omillari qatorida musiqa alohida o‘rin tutadi. Musiqa o‘zining betakror tabiat bilan yoshlarning ma’naviy dunyosiga katta ta’sir etish kuchiga ega. Zero kuy va ohang ta’sirida kishida hissiyot olamining o‘sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilish kurtaklarini barg yozishi, go‘zallikni sevish, ona tabiatni asrash, jonajon Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagining tobora ortib borishi bugunda hech birimiz uchun sir emas. Donishmand xalqimiz azaldan musiqa va qo‘sinqi o‘z ijtimoiy va madaniy hayotlarining muhim bo‘lagi deb bilgan. Oilada farzandni qo‘sinqi aytishga, soz chalishga o‘rgatish ota-onalarning orzusi sanalgan, shu niyat bilan xonadonda biron cholg‘u soz saqlanishi odat qilingan. Kuy va ohangni bola qalbiga tez yo‘l topa olishi, ruhiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, xulq-odobi va yaxshi fazilatlarni shakllanib borishida katta ta’sir kuchiga ega bo‘lishi chuqur anglab yetilgan.<sup>1</sup>

Xor ijrochiligi hozirgi kunda keng tarqalgan asl xalq san’ati turlaridan biridir. Jamoa ijrochiligi insonlarda chuqur estetik zavq uyg‘otibgina qolmay, ularni jipslashtiradi, jamoa bo‘lib birlashishga olib keladi hamda ma’naviy saviyasini, badiiy didini o‘stirishga yordam beradi. U insonning eng yaxshi his-tuyg‘ularini uyg‘otib, hayajonlantirish, qiziqtirish xususiyatiga ega. Shu sababdan xor ishtirokchilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy-g‘oyaviy tarbiyalanishidagi roli juda katta.<sup>2</sup>

Xor sinfi darsi jarayonida talabada vokal madaniyati ko‘nikmasi, mutaxassislik bilimlari shakllanib boradi. Xor va xorshunoslik fani talabani xor san’atiga yanada yaqinlashtiradi. Xor o‘qituvchisi va dirijyor tomonidan xor asarlarini yaxshi kuylash, shu bilan birga xor partitura (partiyalarning tembr bo‘yog‘i, unisonlar, xor rechitativlari, vokal polifonik dinamikalari va hokazo) vositalari orqali singdirilib boriladi. Amaliy mashg‘ulotning asosiy maqsadi - talabaga haqiqiy “musiqiy asbob” bilan ishlash jarayonini tashkil qilib berish. Bu vaqtida har bir talabada qo‘sinqchilik, xormeysterlik, xoming rahbari kabi ijodiy faollik rivojlanib boradi. Shu orqali Xor va xorshunoslik fani bilimli musiqiy ijrochilarni

<sup>1</sup> Q.Mamirov. Cholg‘uchilar ansambl, Oquv qo‘llanma. Toshkent-2002y. 3b.

<sup>2</sup> N.Shafiyeva “Xorshunoslik”, Oquv qo‘llanma. Toshkent-1987y. 3b.

---

tarbiyalab beradi. Masalan dirijyor - o‘zida tashkilotchilik, rejissyorlik, psixologik va boshqa musiqiy bilimlarni bilishi bilan ajralib turadi.<sup>3</sup>

Xalq ijrochiligi san’atida aralash (erkaklar va ayollar) xorlar formasideyarli bo‘lmasa-da, alohida erkaklar, ayollar va bolalar tomonidan qo‘sinq aytish an’analari bo‘lgan. Masalan, turli diniy marosimlarda, mavsumiy sayillarda, ramazon oyida bolalarning qo‘sinq aytishi yoki kattalarning zikr tushishi, marsiya qo‘sinqlarini aytish ham jamoaviy ijrosining bir turidir. Shuningdek, bolalar tomonidan “Boychechak”, “Laylak ketdi”, “Oftob chiqdi” kabi dunyoviy mazmundagi xalq qo‘sinqlari aytilganda ham jamoaviy (xor) ijro formasini ko‘rish mumkin.<sup>4</sup>

Xor sinfining ishida nazariy bilimlar va amaliy kuylash ko‘nikmalarini doimiy qo‘llash orqali talabalarning vokal texnikasiasoslarini egallash jarayoni jadalroq kechadi, bu esa o‘quv xoridagi xor jarangining barcha uch unsuriga (soz, ansambl, nyuanslarga) erishishni yengillashtiradi va osonlashtiradi. Bundan tashqari, yagona vokal texnikasi talaffuzning zarur sifati ustida, ayniqsa turli sur’atda ijro etiladigan rechitativlardagi matn talaffuzi usullari ustida birmuncha muvaffaqiyatli ishslash imkonini beradi.<sup>5</sup>

Ushbu o‘quv qo‘llanma musiqa ta’limi yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan barcha universitet va institut talabalari hamda ixtisoslashgan san’at maktablari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan havaskorlik xor to‘garaklari ham foydalanishlari mumkin.

---

<sup>3</sup> L.Djumayeva, N.Sharafiyeva. “Xor sinfi va kamer xor”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2017y. 3b.

<sup>4</sup> Sh.Ro‘ziyev “Xorshunoslik” O‘quv - metodik qo‘llanma. Toshkent-1987y. 17b.

<sup>5</sup> L.Djumayeva, N.Sharafiyeva. “Xor sinfi va kamer xor”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2017y. 7b.

## I BO'LIM. NAZARIY MASHG'ULOTLAR

### Xor san'ati tarixidan

Xor san'ati – musiqa san'atining janrlari orasida o'zining ommaviyligi va demokratik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda u keng tarqalgan asl xalq san'ati turiga aylangan. Bu san'at turi insonlarni musiqiy tarbiyalashda, estetik qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlarning bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy ongi, didiga, bir yagona g'oya, yagona ijroni maqsad qilib, so'z va musiqadagi tuyg'uni jamoa bo'lib ijro etish, ularni yanada jipslashtiradi. Bu san'at doimo xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq bo'lib, turli millatlar musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Xor san'ati o'zining qadimiy musiqa madaniyatini ifodalashda uzoq tarixga yondoshadi. Asrlar davomida cherkov kuylari professional xor san'atida asosiy ijrochilik hisoblangan. Qadimiy cherkov kuylari, xuddi qadimiy grek kuylariga o'xshab paydo bo'lishiga qadar ovozlarning pastki va yuqori ovozlari (organum, diskant) rivojlanisa bordi.

Uyg'onish davrida xor san'atida katta o'zgarish – ko'p ovozli xor ijrochiligi paydo bo'ldi. Xor san'atining yanada chuqurroq ravnaq topishiga a'capella ijrosida kuylashning paydo bo'lishi asos bo'ldi. XV–XVI asrlarda yashab o'z ijodida ko'p ovozli asarlar yaratib kelgan – J.Palestrina, O.Lasso, K.Janeken kabi polifonist-kompozitorlar o'z hissalarini qo'shdilar<sup>6</sup>. Davr taqozosi bilan madaniyatlar yaqinlashuvi asrlardan-asrlarga o'tib, bir-biriga ta'sir ko'rsata boshlagan. Xususan, O'zbekiston madaniyatiga g'arb mamlakatlari, ayniqsa, Rossiyadagi madaniy o'zgarishlar bevosita singib kelavergan. Buni inkor etib bo'lmaydi, shu sababli mazkur madaniyatlar haqida ham ma'lum bir tushunchalarga ega bo'lib olishimiz darkor.

### G'arb mamlakatlarida xor ijrochiligi

Ma'lum bir davrdan so'ng xor san'atida yana bir o'zgarish paydo bo'lib, yirik asarlar – kantata, oratoriyalar mualliflari sifatida – I.S.Bax, G.Gendel, K.Glyuk ijodi, keyinchalik Meyerber, J.Verdi, shu bilan birga F.Shubert, B.Mendelson, R.Shuman kabi romantik kompozitorlar ijodida kamer xor musiqasi rivoj topdi. Shu davrda qo'shiq sevadiganlar xor jamoalari «lidertafel» (nemischa so'z bo'lib, «yetakchi qo'shiqchi»

<sup>6</sup> Jumayeva L.X. O'zbek xor musiqasi tarixidan. T., 2000.

---

ma'nosini anglatadi. Germaniya, Avstriya va Shveytsariya davlatlarida keng rivojlangan) va «orfeon» (fransuzcha «xor sevuvchilar jamoasi» 1818-yilda Parijda G.Vilemom rahbarligida) paydo bo'lgan<sup>7</sup>.

Xor san'atining cherkov musiqa san'atidan asta-sekin tashqariga chiqishi, opera teatrlarining shakllanishi, XIX asrdagi milliy kompozitorlik mакtabini xalq omma musiqasiga chambarchas bog'lanib ketishi Rossiya, Boltiq bo'yи davlatlari – Chexiya, Bolgariya, Vengriya va boshqa davlatlarda namoyon bo'lgan. Keyinchalik AQSH, Lotin Amerikasi, Yaponiya davlatlarida ham bu jarayon davom ettirilgan.

Rossiyada xor ijrochiligi. Ko'п asrlardan buyon rus xor san'ati o'zining izchilligi bilan ajralib turadi. Rus xor ijrochiligi va ijodiyoti xalq ijrochiligi va cherkov ijrochiligi yo'nalishida rivojlanib, bir-biriga o'zaro bog'langan yo'nalishlar tashkil etgan. Bularga qishloq va shahar qo'shiqlari, qo'shiqcevarlar xor jamoalari, maktab qo'shiqsevarlari, professional cherkov va opera xor kapellalari targ'ibot qilingan.

Birinchi bo'lib XV asrda tashkil qilingan «Podshohning kuylovchilari xori» keyinchalik Peterburg saroy xonandalari kapellasiga aylantirilgan va XVI asrda («Podshohning kuylovchilari xori») keyinchalik Peterburg saroy xonandalari kapellasiga aylantirilgan va XVI asrda yuzaga kelgan «Patriarxning kuylovchilari xori», keyinchalik Moskva sinodal xori, deb atalgan. Patriarxning kuylovchilari xori rus professional xorlarining ilk namoyondalari bo'lib qolishgan. Cherkov ijrochiligi o'z davrida musiqa qobiliyatiga ega ijrochi va xor rahbarlari (regentlar), XVI–XVII asrlarda esa dvoryanlar, pomeshiklar o'z qaramog'ida xor va orkestrlar tashkil etadilar. Bunday jamoalarni «metsenatlar» – san'at homiyлari xori, deb (graf Sheremetyev o'z kapellasining serqirra va sermazmun ijodi bilan 150 yilga yaqin ijod qilib kelgan jamoalardan; knyaz Yu.Galitsin xorlari va boshqalar) nomlangan. Bu kapellalar o'z ijro mahoratlari, dasturlari bilan rus xor madaniyatiga juda katta, yuksak hissa qo'shgan. Ushbu xor jamoalariga krepostnoylar rahbarlik qilib, ular ichidan atoqli xor dirijorlari – S.Dektaryev, G.Lomakin, A.Arhangelskiylarning yetishib chiqishi misol bo'la oladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ma'rifiy yo'nalishda xor san'ati ijrochiligi adabiyot va san'atdagи demokratik harakatlar bilan

---

<sup>7</sup> Mishael Pilhofer and Holly Day "Music Theory for dummies" Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc.

---

uyg'unlashib, ijtimoiy xarakterga ega bo'la boshladi. Tarixiy davrda Rossiyada ommaviy uyg'onishlar rus qo'shiqchiligi xalqning talabiga javob bera oladigan asarlar yaratilishi va yangi rus qo'shiqchiligi maktabi targ'ibot etilishiga olib keldi. Bu ayrim jonkuyar insonlar – M.Balakiryev va G.Lomakinning «Bepul musiqa maktablari», I.Melnikovning «Bepul xor sinflari» kabi professional va havaskorlar xorlari tashkil etilishiga sabab bo'ldi.

XIX asr oxirlarida atoqli xor dirijori A.Arhangelskiyning professional xori dunyo bo'ylab tanildi. Xor jamoasining tiniq kuylashi, xor ansamblining mukammallashuvi turli ko'p ovozli asarlarni yuqori saviyada namoyish etishga olib keldi. Yuqori malakali dirijor, kompozitor va ustoz A.Arhangelskiy rus xor san'atini yuksaklarga ko'tarishga sababchi bo'lgan ijodkorlardan biri.

Kompozitorlar ijodi xor san'atining turlanib, janrlar nuqtai nazaridan keng qamrovga ega bo'lishida muhim o'rinni tutadi. A.Alyabyevning xor uchun asarlari, A.Dargomijskiyning «Peterburg serenadalari» so'zsiz xor bo'lib ijro etishning ilk namunalari bo'lib qoldi. P.Chaykovskiy, N.Rimskiy-Korsakov, M.Musorgskiy, S.Kyui, E.Napravnik, A.Arenskiy, I.Ippolitov-Ivanov, A.Grechaninov, V.Kalinников, P.Chesnokov, S.Taneyev kabi kompozitorlar ijodida xor uchun yozilgan a kapella uslubidagi asarlar xor san'atining yangi pog'onaga ko'tarilishiga asos bo'ldi. Ularning asarlari bugungi kunda ham o'z mavqeini yo'qotgan emas.

XX asrda ham Rossiya hududida ko'plab professional xor jamoalari tuzilib, ular keng konsert-ijrochilik faoliyatini olib borgan. Davlat rus xori, Respublika rus xor kapellasi (keyinchalik A.Yurlov nomi berilgan), Radio va Markaziy televideniye qoshidagi Rus qo'shiqlari xori, Peterburg kuylovchilari kapellasi kabilar bunga misol bo'la oladi. Butun dunyoga tanilgan xor dirijorlari – G.Dmitriyevskiy, K.Ptisa, N.Danilin, A.Sveshnikov, A.Aleksandrov, V.Sokolov, A.Yurlov, A.Yegorov, A.Mixaylov, V.Minin, M.Pyatniskiylar kabilar mazkur san'at rivojlanishiga o'z ulushlarini qo'shdilar. XX asrning ikkinchi yarmida xor san'ati va kompozitorlik ijodiyoti yanada yuksaklarga ko'tarildi. Bunga S.Prokofyev, D.Shostakovich, V.Shaporin, M.Koval, G.Sviridov, V.Salmanov, A.Lenskiy, V.Shebalin, R.Boyko, R.Shedrin va boshqalarning ijodiy izlanishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Shu davrda xor ijrochiligida bolalar ovoziga ham katta e'tibor berilib,

---

maktab bazalarida xor studiyalari, xor to'garaklari, vokal ansamblari tashkil qilindi. Har yili o'tkaziladigan xor festivallari, qo'shiq bayramlari, bolalar musiqa ijodiyoti festivallari keng ko'lamma o'tkazildi. Vladimir Sokolov, Georgiy Struve va Viktor Popov rahbarligidagi bolalar xor jamoalarining dovrug'i butun dunyoga taraldi. Bunday taniqli dirijor va kompozitorlar o'z vaqtida O'zbekiston bolalari, yosh musiqasevarlar bilan ham ko'plab ijodiy uchrashuvlar o'tkazganlar. O'zbekistonnig eng taniqli xor jamoasiga bundan chorak asr narida «Bulbulcha» nomi berilishiga Georgiy Struve sababchi bo'lgan.

*Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:*

1. G'arb va Rossiya kompozitorlarining kattalar va bolalar xorlari uchun yozgan asarlaridan namunalar tinglang.
2. Sizga nomlari tanish bo'lgan dirijorlar va kompozitorlar ijodi haqida gapirib bering.

**Markaziy Osiyo mamlakatlarida xor san'atining rivojlanishi**

Markaziy Osiyo xalqlari davr taqozosi bilan, madaniyatlar yaqinlashuvi tufayli xor ijrochiligi san'atidan ham bahramand bo'ldilar. Ular tarixan shakllangan o'z professional xor madaniyatiga ega bo'lmasada, jamoa bo'lib kuylash, xalqning turmush tarzi, hayoti, mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan azaliy qo'shiqlariga, musiqiy merosiga ega bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida asta-sekin musiqasevarlar jamiyatları o'z faoliyatlarını boshlagan. Bunday jamiyatlardan – «Lira» deb nomlangan xor jamiyatı kapelmeysteri V.Leysek tomonidan tashkil etilib, mahalliy xalqlarni yangi san'at turiga qiziqtirgan. Bu jamiyatning faoliyati ta'sirida turmush sharoiti, hayot tarzida o'zgarishlar ro'y berdi. Dunyo madaniyatiga bo'lgan qiziqish tobora avj olib bordi. V.Leysek uyuştirgan konsertlarda jahon tan olgan kompozitorlar – Meyerber, J.Verdi, M.Glinka va A.Dargomijskiy kabilarning operalaridan xorlar birinchi bor ijro etilgan va tinglovchilarda katta taassurot qoldirgan.

Ko'plab qadimiy musiqiy folklor namunalari ilgari ham allomalarimiz tomonidan tadqiq etilganligi barchaga ma'lum. Ijad namunalari ko'proq yilning ma'lum bir kunlari, ya'ni marosimlari bilan bog'liq bo'lgan. Misol sifatida o'zbek xalqining ijodiyotini keltirish mumkin. «Lola bayrami», mehnat qo'shiqlaridan – «Xashar», «Paxta teradi», «Suz xotin», to'y marosim qo'shiqlari – «Yor-yor», «O'lan», bolalar ijro etadigan –

---

«Boychechak», «Ramazon qo'shiqlari», «Laylak keldi», «Oftob chiqdi», «Choriy chambar» va shunga o'xhash turli mavzulardagi qo'shiqlarni xor ijrochiligi shaklida ko'rish mumkin. Ular faqat tabiat qo'ynida, aniq bir marosimlarda o'z-o'zidan ijro etilgan. Bizning tushunchamizdagi dirijorlarda ehtiyoj bo'lмаган. Xor ijrochiligi sahna sharoitiga ko'chgandan so'ng rahbar boshqarib borishi lozimdir.

Turli ko'rinishdagi jamoa bo'lib kuylash jarayoni o'zbek folklorida ayrim janrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Xor sa'natining birinchi pog'onasi sifatida – qo'shiq va raqsning bir-biriga uyg'unlashib, alla janrining paydo bo'lishini hisoblash mumkindir. Qo'shiqning asosiy matnini yallachi raqs bilan birgalikda ijro eta boshlaydi, naqarotni esa bir ovozda bo'lsa-da kichik ashulachilar guruhi jo'r bo'lib ijro etadi. Shuningdek, jamoa bo'lib ijro etish darvishlar xonishlarida ham ko'rindi. Erkaklarning zikr aytishlari ham bunga yorqin misoldir. Asrlar davomida to'plangan ko'hna meros – «Shashmaqom»ning vokal qismlaridagi taronalar ham xonandalar ansambli tomonidan ijro etilib kelgan. Jumladan, o'zbek folklor qo'shiqlari va maqomalardagi jamoa bo'lib kuylash kelajakda Markaziy Osiyo xalqlari orasida xor san'ati rivojida katta zamin bo'la olgan.

O'zbekiston hududida XX asrning boshlarida teatr truppalari tuzilib, tomoshalar vaqtida spektakl mazmun-mohiyatidan kelib chiqib jo'rlikda ijro etiladigan qo'shiq va ashulalar xor ijrochiligi asta-sekin o'zbek xalqiga singib borayotganligidan dalolat bo'lgan. Tinglovchilarda kuyga solingan va birgalikda kuylangan matnlar katta taassurot qoldirgan, yuraklarni larzaga solgan.

1918-yilda Xalq konservatoriysi ochilishi xor san'ati targ'ibotida muhim rol o'ynaydi. Toshkent shahrida birinchi bo'lib jonkuyar ustoz, izlanuvchan inson, ma'rifatparvar Ali Ardobus Ibrohimov rahbarligidagi oltmishta o'zbek og'il bolalaridan tashkil topgan maktab teatr jamoasi tuzildi. V.Sakovich tashkil etgan «Zebbiniso», Sh.Shoumarovning «Namuna» va S.Yenikeyevaning o'zbek qizlar xor jamoalari tuzilishi ham xor ijrochiligi ommaviylashishida munosib o'rinn tutgan. 1936-yilda O'zbekistonda birinchi xor kapellasi tuzilgan va unga M.Lepexin rahbarlik qilgan. Dastlabki konsert dasturi xalqaro miqyosda, xususan, Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati kunlarida namoyish etilib, keng tinglovchilar olqishiga sazovor bo'lgan. Shu yo'sinda Respublika teatrlarida, harbiy okruglarda, o'rta maktablarda, o'quvchilar saroylarida

---

xor jamoalari tuzilishi avj oldi<sup>8</sup>.

O'zbekistonda xor ijrochilagini yuqori darajaga ko'tarish uchun yana bir muhim vazifani amalga oshirish joiz edi. Bu kadrlar tayyorlash ishi bo'lib, Toshkent davlat konservatoriyasida (hozirgi – O'zbekiston davlat konservatoriysi) 1943-yildan boshlab xor dirijorlari tayyorlana boshlandi. Xuddi shu jarayon Markaziy Osyoning boshqa mamlakatlarida ham amalga oshirildi. Tayyorlanayotgan kadrlar oldiga asoisy vazifa qilib, xor ijrochilida professionallik nuqtai nazaridan yuqori madaniyatga erishish, repertuar siyosatini olib borish yo'llari, targ'ibot usullarini o'zlashtirish belgilandi. Dastlabki tayyorlangan mutaxassislar (R.Xublarov, Ye.Gudkova, A.Vasilyeva, E.Melik-Karamyan, M.Subayeva kabilar) va kompozitorlar (Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Mutavakkil Burhonov, Sharif Amazonov, Botir Umidjonov kabilar) yurtimizda xor san'atining yangi bosqichda shakllanishi va rivojlanishida hal qiluchchi rol o'ynadilar.

#### *Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:*

1. Markaziy Osiyo mamlakatlarida xor san'ati paydo bo'lishiga sabab bo'lган omillar nimalardan iborat.
2. Sizga tanish bo'lган xalq qo'shiqlarini sanab, ularning ma'nosini gapirib bering.
3. O'zbekistonda xor ijrochiligi bo'yicha ta'lim jarayonining shakllanishi va ijodiy muhitning yaratilishi, bu borada dirijorlar va kompozitor faoliyati haqida gapirib bering.

#### **Professional xor ijrochilgi**

O'zbekistonda professional xor san'ati eng yangi san'at turlaridan biridir. Dastlab havaskorlik darajasida madaniyatimizga kirib kelgan bo'lsa-da, davr talabi bilan ushbu ijrochilik yo'nalishiga ham e'tibor kuchaydi. Professional xor jamoalari tuzish davlat tomonidan amalga oshirila boshlandi. Avvalambor 1952-yilda O'zbek filarmoniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi, maxsus ta'lim jarayonini o'tagan mutaxassislardan tuzildi. Ko'p ovozli yangi davr musiqa asarlarini ijro etish bunday jamoalardan mahoratni talab etar edi. Kapella, deb nomlanadigan bu musiqiy badiiy jamoaga iste'dodli xormeyster S.Valenkov rahbar etib tayinlangan. Bu jamoaga keyinchalik A.Sultonov, R.Xublarov, X.Vohidov, A.Hamidovlar rahbarlik qilishdi. Hozirda bu

---

<sup>8</sup> V.P. Ocherki istorii russkoy xorovoy kultura vtoroy polovino XVII -nachala XX veka. - M., 1985.

---

jamoaga D.Jdanov boshchilik qilmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston xalq artisti Ahad Hamidov rahbarlik qilgan yillarda kapellaning eng gurkiranigan, dunyo kezgan davri bo'ldi. Dasturlaridan jahon klassik asarlari hisoblangan – oratoriyalar, kantatalar, messalar, oda va qasidalar ilk bor o'zbeklar diyorida jonli ijro etildi. Shu bilan birga turli xalqlar qo'shiqlari me'yoriga yetkazilib, qayta ishlanib tinglovchilar hukmiga havola etildi.

Mutal Burhonov yaratgan xor asarlari, ayniqsa, a kapella qo'shiqlari tinglovchilar auditoriyasining kengayishiga olib keldi. Kompozitor o'z asarlarini ushbu jamoa bilan hamkorlikda ijod etdi. Uning «Yorlarim», «Go'zal qizga», «Sayyora», «Zarragul», «Bibigul», «Sari ko'hi baland» kabi o'nlab qayta ishlangan, sayqal berilgan a kapella asarlari endilikda bu janrning mumtoz namunalariga aylanib qoldi. Professional xor ijrochiligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan, asosiy janr hisoblangan – a kapella janri shakllandi.

Professional xor ijrochiligidagi milliylikni saqlab qolish maqsadida O'zbekiston teleradiosi qoshida ham 1960-yili xor jamoasi tashkil etildi. Unga atoqli dirijor, iste'dodli kompozitor, xor musiqasi bilimdoni, O'zbekiston xalq artisti Botir Umidjonov rahbar etib tayinlangan. U nafaqat rahbar edi, balki jamoaning dastur yaratuvchisi ham edi. Istiqbolli reja asosida ko'p yillar jamoaga beminnat rahbarlik qilgan. Jamoasi «ijodiy laboratoriya»ga aylangan bu zahmatkash ijodkor yuzlab xalq qo'shiqlarini qayta ishlab, yangi, original asarlarni yaratib xor san'atini xalqimizga manzur eta oldi. «Diliman», «Qaro soch», «Ililla yor», «Og'o dorom», «Gal bari», «Chamanda gul», original asarlar – «Dilbarume» xor syuitasi, «Segoh», «Chorgoh», «O'zgancha» kabilar uning qalamiga mansub.

Professional xor ijrochiligi O'zbekistonda XX asrning 70-yillarida to'la shakllandi, deb ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Shu qisqa davr mobaynida yangi san'at turi, uning ijrochiligi milliy ijodkorlar va ijrochilar tomonidan o'zlashtirildi. Endi mutasaddilar oldida jahonni zabit etish borasida yangi maqsad va vazifalar turardi.

*Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:*

1. Markaziy Osiyo mamlakatlarida xor san'ati paydo bo'lishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlar haqida fikr bildiring.
2. Sizga tanish bo'lgan xalq qo'shiqlaridan kuylab, ma'nosini gapirib bering.

---

3. O'zbekistonda xor ijrochiligi bo'yicha ta'lim jarayonining shakllanishi va ijodiy muhitning yaratilishi, dirijorlar va kompozitor faoliyati xususida eslang.

### **XX asrning so'nggi choragidagi rivojlanish**

XX asrning so'ngi choragida jo'rsiz musiqaning rivoji kompozitorlarni a kapella janrida ayrim izlanishlarga olib keldi. Kompozitorlar – Mutal Burhonov, Sayfi Jalil, Ikrom Akbarov, Botir Umidjonov, Mustafo Bafoyev, Nadim Norxo'jayev, Baxrullo Lutfullayev, Avaz Mansurov, Dilorom Omonullayeva, shuningdek, ijodkor xormeyster – Shermat Yormatov, Naira Sharafiyeva kabilar bu janrga alohida e'tibor berishdi. Botir Umidjonov ijodida yangi matn, yangi timsollar, membr, faktura usullari, xor matosini simfoniyalash kabi ijrochilik uslubi yangi qirralarga olib keldi. Bularga – Botir Umidjonovning «Ruboiy» nomli (Umar Xayyom) xor turkumini sanab o'tish mumkin. Professional xor ijrochiligi bilan bog'liq bo'lgan – a kapella janri aynan ruboiy turkumida o'ziga xos bo'lgan faktura va badiiy ifoda vositasini topdi. Qalin matoli, ko'p ovozlik, ya'ni polifoniya usulidan foydalanish kabi yangiliklar paydo bo'ldi. Bu davrda yozilgan – «Chor baytho», «Alla», «Olis yo'lidan» nomli asarlar ham bunga yorqin misol bo'la oladi.

O'zbek jo'rsiz xor musiqasi janrida faol va samarali izlanishlar olib borayotgan O'zbekiston davlat konservatoriyasining «Xor dirijorligi» kafedrasi mudirasi, professor Naira Sharafiyeva o'zining jozibali va yorqin ijod namunalarini musiqa shinavandalariga tuhfa etmoqda. Uning aralash xor uchun qayta ishlagan xalq qo'shiqlari – «O'zbekiston taronalari» xor syuitasi, «Deydiyo», «Hazil», «Yarayandim», «Mustahzod», «Faryod» kabi asarlari o'zgacha ahamiyat kasb etadi.

Hozirda musiqa estetikasi, milliy madaniyat, tarix, madaniy merosimizning chuqur izlanishlariga qiziqish otrib bormoqda. Opera xor musiqasi, jo'rsiz xor asarlari o'zining yangi davriga kira boshladи. Zamonaviy operalar – «Alisher Navoiy» (M.Burhonov), «Zebbiniso» (Sayfi Jalil), «Umar Xayyom» va «Al-Farg'oniy» (Mustafo Bafoyev)da xor partituraси matosida ham, cholg'ulashtirishda ham kamerlikka intilish sezildi. Bu ham balki davr taqozosi bilan belgilanayotgan jarayondir. Jo'rsiz xor asarlarida doyra, qo'shnay, qayroq kabi cholg'ulardan foydalanish yangi uslubiy sifatlarga, yangi musiqiy ifoda vositalariga o'tishni anglatadi.

Respublikamizda bolalar xor san'ati ham keng rivojlanib, ijrochilik

---

mahorati yuksaklarga ko'tarildi. Bunga sabab – muntazam o'tkazilib kelinayotgan «Qo'shiq bayramlari», musiqa festivallari va tanlovlardir. Shu bahona barcha o'rta maktablarda, o'quvchi-yoshlar ijodiyoti markazlarida xor jamoalari, xor studiyalari tashkil topdi. Ular uchun O'zbekiston kompozitorlari yuzlab yangroq qo'shiqlar yaratib, konsert-pedagogik repertuarlarini boyitdilar. Bolalar xor san'atining rivojlanishida O'zbekiston xalq artisti, «Sog'lom avlod» ordeni sohibi, mashhur «Bulbulcha» bolalar xor jamoasining rahbari Shermat Yormatovning xizmatlari beqiyosdir. Ijodkor sifatida uning qalamiga mansub – «Maysa», «Yalpiz», «Dorboz», «Qari chumchuq chaqimchi» kabi o'nlab jo'rsiz asarlarini sanab o'tish mumkin.

Bolalar xor san'atining rivojlanishida, shuningdek, R.Glier va V.Uspenskiy nomidagi Respublika maxsus musiqa akademik litseylari, Badiiy Akademiya huzuridagi Tasviriy va amaliy san'at litseyi, H.H.Niyoziy nomidagi Respublika musiqa kolleji, Yu.Rajabiy nomidagi Pedagogika kolleji va boshqa kelajakka intilgan o'rta va musiqa maktablarining xor jamoalarini Respublika miqyosida amalga oshirayotgan ijodiy faoliyatini alohida mammuniyat bilan ta'kidlash lozim.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Jo'rsiz xor uchun asarlar yaratgan O'zbekiston kompozitorlari va ijodkor xormeysterlar haqida gapirib bering. Ularning yana qanday asarlarini bilasiz?
2. Respublikamiz bolalar xor san'ati rivojlanishi va bolalar xor jamoalari to'g'risida nimalarni bilasiz?

#### **Xor, uning turlari va ko'rinishlari**

Xor - yunoncha «choros» - yig'ilish, to'da ma'nosini bildirib, birlashgan jamoa sifatida turli inson ovozlaridan tashkil topadi. Xorlar asosan ikki turga bo'linadi:

- Bir turdag'i xorlar;
- Aralash xorlar.

Bir turdag'i xorlarga – bolalar xori (soprano yoki diskant va alt ovozlar), ayollar xori (soprano va alt ovozlar), erkaklar xori (tenor va bas ovozlar) kiradi. Aralash xorga esa – ayollar va erkaklardan tuzilgan xorlar (soprano, alt, tenor va bas) kiradi.

Bolalar xorlari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- 
- 4–7 yoshdagi bog'cha kichkintoylaridan tuziladigan xorlar;
  - 7–10 yoshdagi bolalardan tuzilgan xor jamoasi (kichik sinflar o'quvchilari);
  - 11–15 yoshdagi bolalardan tuzilgan xor jamoasi (o'rta sinflar o'quvchilari qatnashadi);
  - 16–18 yoshdagi o'smir-yoshlar xori (litsey va kollejlar o'quvchi-yoshlaridan tuzilgan jamoalar). Ayollar xor jamoasi birinchi va ikkinchi sopranolar va altlarni o'z ichiga oladi, uch ovozda kuylaydi. Alt ovozlarni ham kezi kelganda ikkiga bo'lib, ayollar xori uchun to'rt ovozli asarlar yaratса ham bo'ladi.
- Erkaklar xori jamoasi ham ko'p ovozda kuylay oladi. Buning uchun ular ko'rinish jihatidan birinchi va ikkinchi tenorlarga va baslarga bo'linib, uch ovozda yoki tenor, bariton va bas sifatida ham uch ovozda kuylaydi. Kezi kelganda birinchi va ikkinchi tenorlar, birinchi va ikkinchi baslarga bo'linib erkaklar xori ham to'rt ovozda baralla kuylashi mumkin.

Aralash xor – boshqa xor turlariga nisbatan kengroq tarqalgan. O'zining rang-barang tembriga, katta ovoz diapazoniga va keng ijro imkoniyatlariga boy bo'lganligi tufayli eng takomillashgan badiiy jamoalar safidan o'rinni olgandir. Misol sifatida Davlat xor kapellasini, Milliy xor jamoasini, A.Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatrining xor truppasini, O'zbekiston davlat konservatoriyasining talabalar xor jamoasini keltirish mumkin.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Xorlar turlarini tavsiflab bering;
2. Ko'rinishlari jihatidan xorlar bir-biridan qanday farq qiladi?

---

## II BO'LIM. AMALIY MASHG'ULOTLAR

### DIRIJORLIK TEXNIKASI

Musiqiy ta'lif muassasalarida o'qimoqchi bo'lgan yoshlarimiz soni yil sayin ko'paymoqda. Shu jumladan bugungi kunda juda murakkab va ko'pqirrali san'atga aylangan dirijorlikka qo'l urish istagida bo'lganlar ham oz emas. Xalq va puflama cholg'ular orkestrlarining ko'payishi o'z navbatida malakali rahbarlarga bo'lgan ehtiyojni oshirdi.

Hozirda musiqa ijrochiligi yuksaldi, zamonaviy mualliflar yaratayotgan partituralar ham o'ta murakkablashdi. Bularning barchasi dirijyordan yuqori mehnat samaradorligini qisqa vaqt ichida asar ustida ishlay bilishni talab qiladi. Shunday ekan bu o'rinda dirijor mahora ti o'ta muhimdir. Biroq, dirijorlik kasbiga o'qitishni muayyan kiyinchiliklari borki, bulardan biri bo'lajak dirijor o'zining eng asosiy «cholg'usi» bo'lgan — orkestr bilan uzviy muloqotda bo'la olmaslidir. Orkestr o'rniga fartepianodan foydalanadilar, ammo uning tovush chiqarish yo'li butkul boshqacha. Orkestrda ijrochilik imkoniyatlari keng va turli ekanligi bois, u har qanday musiqiy cholg'uga qaraganda murakkabdir. Asosiy murakkablik shundaki, orkestrda malaka va iste'dodi turli xil bo'lgan odamlar ishlaydilar va ularning har biri o'ziga xos fe'l-atvor, ehtiros va boshqa ruhiy hamda xissiy hususiyatlarga ega bo'ladilar. Shu bois dirijorlik boshqa ijrochilik mutaxassisliklariga nisbatan murakkab ishdir.

Mazkur ilmiy ish havaskor orkestrlar dirijorlari, maxsus musiqiy maktab va litseylar yuqori sinf o'quvchilari, madaniyat instituti va konservatoriya talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularga dirijorlik texnikasi tabiatini yaxshiroq tushunish, uning orkestrni boshqarishdagi umumiy jarayonida tutadigan o'rnini ko'rsatish, uning keyinchalik orkestr bilan mustaqil ishlashida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam berishga qaratilgan. Yaxshi dirijor iste'dod, bilim, iroda kuchi, eshitish qobiliyati va tajriba kabi ko'plab fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Biroq, agar dirijor bu fazilatlarini orkestrga xizmat qildira bilmasa u yoki bu asarning tempi, dinamikasi va bu borada o'z talqinini yetkazishdagi muayyan yo'lini orkestrga yetkaza bilmasa ko'zlagan maqsadiga erisha olmaydi.

XX asrning yarmidan boshlab zamonaviy musiqa ancha murakkablashdi va orkestrni boshqarishda yuksak dirijorlik texnikasiga ega bo'lish muhimligini ko'rsatdi. Shunday qilib, dirijorlik texnikasi nima?

---

Yaqin-yaqingacha dirijyorlikka o'qib bo'lmaydi, balki dirijyor bo'lib tug'ilish lozim, bunday qobiliyatni insonga tabiatni o'zi in'om etadi, deb hisoblab kelingan. Shuningdek «dirijyorlik texnikasi» nima ekanligini hamisha va hamma ham yaxshi anglayvermaydi. Bu tushuncha haqida turli tasavvurlar bor. Ba'zi musiqachilar dirijyorlik texnikasiga musiqiy obrazning va asar mohiyatini qo'l harakatlari orqali ifodalash vositasi deb qaraydilar. Bunday fikrni S. A. Kazachkov, A. P. Ivanov-Radkevich, I. A. Musinlar qo'llab-quvvatlaganlar. Xususan I. A. Musin shunday deb yozgan edi: «Qo'l harakati o'ziga xos tilga aylanib, dirijyor nutqining o'rnini bosdi. Uning yordamida dirijyor orkestr va tinglovchilar bilan musiqa mazmuni haqida so'zlashadi». Ayrimlar esa dirijyorlik texnikasi deganda musiqiy asar ijro etayotgan xor yoki orkestrni boshqarish usullarini tushunadilar. (M. I. Kanershteyn, I. V. Razumniy). Boshqalar esa dirijyorlik texnikasi tushunchasini musiqiy asarni ijro etayotgan xorni yoki orkestrni boshqarishning o'zi deb tushunadilar. (V. G. Rajnikov, J. M. Debelya).

Bizning fikrimizcha, dirijyorlik texnikasi — avvalo dirijyor tomonidan uning qo'llari harakatlari yordamida ijro etilayotgan musiqani talqin etishdir.

### **DIRIJORLIK APPARATINI O'R NATISH**

Dirijyorlik apparati deb uning butun jismini olish mumkinki, bu apparatning samarali ishlashi uchun tana qismi, bosh, qo'llar, yelka va oyoqlarga nisbatan to'g'ri vaziyat egallanishi kerak. Dirijyorlik apparatining barcha qismlari o'zaro bog'li q va ma'lum darajada bir-birini to'ldiradi.

#### **TANA**

Dirijyorlik qilish paytida tana tik, xotirjam va shu bilan birga harakatga tayyor holatda ko'krak kafasi sal ko'tarilgan, yelka esa tik to'g'ri bo'lishi lozim. Yelkani juda ko'tarib yuborish mumkin emas — bu bel mushaklari harakatsiz holatda bo'lishiga, tirsaklar ikki tomonga «tarvaqaylab» ketishiga va umuman butun tananing noqulay vaziyatga kelishiga sabab bo'ladi. Haddan tashqari egilish va bukilish ham noto'g'ri. Bunday holatda harakatlar sust va ishonchsiz bo'lib qoladi. Tananing haddan ziyod harakatchanligi, ijro paytida tez-tez burilish, egilish va boshqa ortiqcha holatlar shoshqaloqlikdek ko'rindi va odatda dirijyorning texnik ko'nikmalari yaxshi emasligini ko'rsatadi.

Umuman, dirijyorning butun tashqi ko'rinishi estetikaga asoslanishi

---

kerak: tana tabiiy holatda, ko'krak qafasi kerilgan, yelkalar to'g'rilaqan bo'lmosg'i lozim. Shuningdek dirijyor hech qachon qaddini bukip turmasligi darkor. Tananing holati dirijyorning nafas olishiga ham ta'sir etadi. Yelka va butun tana shunday holatda bo'lishi kerakki, dirijyorni erkin nafas olishiga xalaqit qilinmasligi kerak. Dirijyorning nafas olishi shu sababdan tabiiy bo'lishi kerakki, u butun musiqa va uning qismlarini nafasi bilan bog'laydi. Shu bois ham «dirijyor musiqa bilan birga nafas oladi» degan ajoyib ibora bor. Dirijyorning nafas olishi qo'shiqchilar va sozandalar nafasi bilan ham tabiiy ravishda bog'lanadi. Dirijyorning butun vujudi doimo orkestrning har bir a'zosi va qolaversa, tinglovchilarning diqqat markazida bo'lishini inobatga olgan holda u o'zini hamisha nazorat qilib turishi, ortiqcha harakatlar qilmasligi lozim. Dirijyorning butun diqqat e'tibori orkestrga qaratilib, uning harakatlari aniq, ishonchli va ayni paytda o'sha-ro'parasidagi orkestrga ko'maklashishga yo'naltirilgan bo'lishi shart. Ba'zi dirijyorlar qo'l harakatlarining ta'sirchanligini oshirish maqsadida orkestrantlar tomon egilib, o'z tanasini noo'rin harakatlarga yo'naltiradi. Amalda esa bu hol ko'l harakatlarining samarasini oshirmaydi, aksincha, ijrochilarning yanglishtirishga olib kelishi ham mumkin. Ta'sirchanlikka tana yordamida emas balki faqat qo'l harakatlari orqaligina erishish lozim.


Bunga taniqli rus dirijyori YE. A. Mravinskiy yorqin misol bo'la oladi. Uning tanasi orkestrni boshqarish jarayonida deyarli ishtirok etmaydi. Qo'llari esa butkul erkin holatda ishlaydi. Tananing ifoda imkoniyatlaridan a'lo darajada foydalana bilish, tana holatining ma'nodorligi, harakatlarning yuksak darajada plastik ekanligi uning dirijyorlik uslubini nihoyatda emotsiyal bo'lishini ta'minlagan.



---

## BOSH HOLATI

Dirijyor boshini shunday tutishi kerakki, bunda dahani sal tepaga ko'tarilib, nigohi orkestrga qadalib turadi. Boshni to'g'ri va erkin tutib, uni kerak paytda orkestrning turli qismlari tomon burishga oson bo'ladigan holatda ushslash lozim. Boshni musiqaga hamohang tarzda o'ynatish ham, mudom bir nuqtaga tikilib turish ham to'g'ri emas. Boshni ng juda egik holatda tutish esa bo'yin mushaklarining qisilib qolishiga olib kelishi mumkin. Agar bosh egik holatda tutilsa, dirijyor orkestrantlarning hammasini ko'ra olmaydi, o'z navbatida ularni ham dirijyorning yuzini ko'rib turishlari qiyinlashadi. Zotan ular o'rtasidagi muloqotda dirijyor nigohi katta ahamiyat kasb etadi. Dirijyor nigohi ijrochilar e'tiborini jamlovchi, ularni ijrodagi qandaydir muhim jihatdan ogohlantiruvchi, alohida cholg'u yoki guruqlar qismlarini ta'kid etish vositasidir. Bunda yuz ifodasi katta ahamiyatga egaki, uning ma'nodor bo'lishi badiiy obraz yaratishda muhim rol o'ynaydi. Asosiysi — qiyofani keraksiz tarzda burishtirmaslikdir. Dirijyorning toshdek qotib qolgan, ma'nosiz qiyofasi ijrochilar jamoasida zavq uyg'otmaydi, albatta, lekin haddan ziyod ma'nodorlik, ifodaviylikka erk berish ham to'g'ri emas.



## OYOQLAR HOLATI

Dirijyorlik paytida oyoqlar butun tana uchun mustahkam tayanch vazifasini bajaradi. Dirijyorning oyoqlari butun oyoq panjasini yoki barmoqlariga tayanib, tananing barqaror holatini ta'minlaydi. Asosiysi — tayanch tovonga to'g'ri kelmasa bo'lgani. Oyoqlarni juda kerib yuborish

---

yoki bir-biriga juda yaqin qo'yish ham noto'g'ri. Dirijyor musiqaga hamohang tarzda tizzalarini bukishi, u yoq, bu yoqqa yurishi, yoki bir joyda qotib turgan holda tanasini chayqatishi ham to'g'ri emas. Dirijyorlik qi lish paytida tana holatlari o'zgarib borar ekan unga muvofiq tarzda oyoqlar ham o'z holatini o'zgartirib turadi. Shu munosabat bilan tana og'irligi u oyoqdan bu oyoqga o'tib turadi. Garchi oyoqlarni bir holatda tutish qiyin bo'lsada, ularni tez-tez o'zgartirib turish ham noto'g'ri, bu bir joyda depsinish yoki biror joyga shoshib turgan kishi holatiga o'xshab ko'rindi.



### QO'LLAR HOLATI

Dirijyorning qo'llariga qo'yiladigan asosiy talab — ularning to'la erkinligi, ya'ni tanaga bo'ysunmasligi va mushaklarning bo'sh qo'yilishidir. Erkinlik dirijyorga musiqani oson ifoda etish imkonini beradi. Qo'llarni erkin tutmaslik esa orkestrga o'z niyatlarini to'liq va aniq yetkazishga xalal beradi. Bunday qo'llar egiluvchan va plastik bo'lmaydi,

---

ular musiqani ifoda etishga ojizlik qiladi. Ular hatto nigohni ham charcha tib qo'yadi, eng asosiysi — erkin bo'lmaning qo'llarning harakatlari tushunarsiz bo'lib, bu orkestr ishiga yordam o'rniغا, xalal beradi. Odadta bunday qo'llarning tirsaklari ikki tomonga kerilib, tepaga ko'tarilgan bo'ladi. O'z qo'l harakatlarining samarasiz ekanini sezgan bunday dirijyor qo'llariga «yordam berish» uchun yana tanasi, boshini ishga solib, keraksiz harakatlarni ko'paytiraveradi.

Xuddi shuningdek, kimtinib ishlaydigan dirijyor o'zi ijro etayotgan konsert yoki spektakl «yuki»ni ko'tara olmaydi.

Shu bois o'z faoliyatini endi boshlayotgan dirijyorlar bilan takt mashqlarini o'rganishni va qo'llarni «erkinlashtirish» ishidan boshlaganlari ma'qul. Bugun qo'llar — dirijyor apparatining asosiy va eng muhim qismi ekanligini unutmaslik kerak. Qo'llarning turli holatlari — harakatlari erkinlik, qulaylik, tabiiylik va muhimi ijroga to'g'ri kelish kabi talablarga javob berishi kerak.

Ma'lumki, qo'l kaft, bilak va yelkadan iborat. Dirijyorlik qilishda qo'lning eng harakatchan va ifodali qismi bo'lgan kaft (kist) eng muhim rol o'ynaydi. Kaft bilan organik ravishda bog'langan bilak va yelka yordamchi qismlar bo'lib, harakatda faqat kaftning holatlari uchun xizmat qiladi. Aksariyat hollarda qo'l qismlari o'z holatlarida shunchalik o'zaro bog'liqki, kaftning eng kichik harakati ham bilak va yelka mushaklari ishtirokini taqozo etadi. Masalan yengil staccato dan pianissimo ga o'tish.

Dirijyorlik qilishda kaftni pastga qaratib tutish — uning eng qulay holatidir. Bunda kaft bo'shashgan ham qisilgan ham, ortiqcha ko'tarilgan ham bo'lmasdan hamisha oldinga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Barmoqlarni tabiiy ravishda biroz dumaloqroq shaklda bo'lishi buning barobarida ularning erkin holati butun kaftning yetarli darajada erkinligidan dalolat beradi. Kaftning harakatchanligi, elastikligi va yetarli darajada erkinligi mushaklarning har qanday tez harakatga tayyor turishi bilan muvofiq bo'lmosg'i kerak. Kaftning bu jihatdir qo'l harakati orqali ijroning eng nozik tomonlarini ifoda etish imkonini beradi. Aynan kaft harakatlari dirijyor qo'l harakatlariga asosiy dinamik, emotsiyal ko'rinish beradi.


Kaft erkinligini o'rganishning dastlabki davridanoq alohida nazorat qilib turish kerak. Shunga tayanib, avval boshidanoq, darhol tayoqcha bilan dirijyorlik qilishga o'tish maslahat berilmaydi, chunki bu kaft mushaklarining zo'riqishiga sabab bo'lishi mumkin.

---

Dirijyorlik qilish paytida qo'l holati o'zgarishs iz qolmaydi. Ularning joylashuv balandligi, cho'zilish darajasi doimo o'zgarib turadi. Bu ko'p sabablarga bog'liq. Jumladan, orkestr jarangdorligi dinamikasiga, u yoki bu epizod fakturasiga, muayyan cholg'u yoki guruhlarning ijroga kirishishini ko'rsatishga, asar janriga, uslubiga, masshtabiga, qolaversa, orkestr tarkibining kattaligiga, xor, yakkaxonlar soniga, shu bilan birga orkestr yamasi teatrlarda (orquestr joylashadigan chuqurlik) yoki estrada sahnasida dirijyorlik qilinishiga bog'liq bo'lishi mumkin. Bularning barchasi dirijyor qo'llari holatida aks etadi.

O'qitish jarayoni avvalida talabalar dastlab rioya qilishi mumkin bo'lgan o'rtacha qo'l holatini belgilash tavsiya etiladi. Tabiiylik, qulaylik maqsadida qo'lning erkinligini ta'minlash va orkestrga ko'rinarli bo'lishi uchun qo'llarni ko'krakdan sal pastroq holatda tutgan ma'qul. Agar qo'l undan yuqoriqoq bo'lsa — yelka mushaklari zo'riqadi, aksincha pastroq bo'lganida esa orkestrga ko'rinnmaydi. O'rganuvchilar avval butun dirijyorlik apparatini to'g'ri «o'rnatish»ni bilishlari lozim. Shundan keyingina dirijyorlik texnikasini egallahsga o'tish mumkin. Dirijyorlik apparatini «o'rnatish» qo'l, yelka, bo'yin, bosh mushaklarini bo'shashtirish, erkin tutishdan boshlanadi. Dirijyorlikni o'rgatuvchi pedagogning vazifasi avvalo har bir talaba uchun tana, bosh, qo'l va oyoqlarning eng qulay va tabiiy holatini topishdan iborat. Bu bilan talabani qaddi qomatini to'g'ri tutish, asosiy dirijyorlik holatini aniqlashga o'rgatish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, qaddi qomatni to'g'ri tutish nafaqat estetik nuqtayi nazardan muhim, balki amaliyat uchun ham zarur. Ma'lumki harakatlarni o'zlashtirish qobiliyati hammada turlicha kechadi. Ba'zilarda osongina uddalansa, boshqalarda jiddiy qunt va sabotni talab qiladi.

Dirijyorning besunaqay, notabiiy, yoki qo'pol harakatlari ijrochilarda zo'riqish va noqulaylik xislarini to'g'dirishi mumkin. Muay yan estetik normalarni ham mudom yodda tutish darkorki, dirijyorni butun ijrochilar guruhi avvalo ko'rish orqali qabul qiladilar.



### DASTLABKI HOLAT VA DIRIJORLIK SXEMALARI

O'z ishini boshlar ekan, dirijyor o'zi uchun muhim va zarur bo'lgan holatga keladi, bu dastlabki holat deb ataladi. U bir-biridan uzoqroq qo'yilgan oyoqlarga tayanib, tik va erkin xolda turad i. Bir oyoqni sal oldinga chiqarib, goh unisiga, goh bunisiga tayanib ham turish mumkin. Bunda taktni oyog'i bilan urib, musiqaga hamohang tarzda tizzalarni bukib turish yaramaydi, bu birinchidan keraksiz, ikkinchidan esa, xunuk ko'rindigan holatdir. Dirijyorlik paytida tana normal, oddiy refleks tariqasida qo'l harakatlari ta'sirida chayqalishi mumkin. Yelkalar ortiqcha zo'riqishdan xoli bo'lishi kerak. Qo'l va tirsak erkin holatda bo'ladi. Dirijyor qo'llarini erkin va uncha baland ko'tarmagan holda tutib tirsaklarini tanadan uncha uzoqlashtirmagan holda tutishi maqsadga muvofiq. Tirsaklarni baland ko'tarish qo'l harakatlariga xalal beradi, taklashni qiyinlashtiradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, takt berishda dirijyor asosan o'ng qo'lini ishlatadi. Tepa-pastga, o'ng yoki chapga harakat qilganda u qo' l kaftini pastga tutganicha turishi kerak.

Kaft va barmoqlarni cho'zmasdan ayni paytda musht qilib bukib ham olmagan holda yengil hamda erkin tutish lozim. O'rganishni boshlanishi davrida bunga amal qilish tavsiya etiladi.

Tayoqchani ushlaganda dirijyorning ko'rsatkich barmog'i bosh barmoqqa tegib turadi, qolgan uch barmog'i esa, bir -biriga tegmagan holda, sal egilgan bo'ladi. Bunda qo'llar shunday holatda turishi kerakki,

---

undan har qanday tomonga (o'zidan, o'zi tomon, tepaga, pastga) harakat qilish qulay bo'lsin. Kafning takt berishda va umuman dirijyorlikdagi ahamiyati juda muhim, ayniqsa agar ijroning o'ta ifodali bo'lishiga erishishni hohlasangiz, kaft doimo erkin, zo'riqmagan va egiluvchan bo'lishi lozim. Biroq bu erkinlik va egiluvchanlik yasama emas, balki tabiiy bo'lmos'i kerak.

Dirijyor takt berishda vertikal va gorizontal qo'l harakatlaridan foydalanadi. Ularning har qaysisi juda chegaralangan yoki juda keng bo'lmasligi lozim. Dirijyor qo'l harakatlarining yo'nalishini bildiruvchi bo'linishlardan tashqari ularni yana kuchi bo'yicha ham ajratadilar. Ulardan eng kuchlisi — qo'lning pastga (vertikal) harakatidir, chunki uni bajarayotganda yerning tortish kuchini yengishga hojat qolmaydi. Shuni esda tutish kerakki, kuchli harakatda mushaklar zo'riqadi, kuchsiz harakatda esa bo'shashadi.

Qo'l harakatlarini kuchli va kuchsizlarga ajratilishi takt belgilashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki kuchli harakatlar bilan kuchli, urg'uli, kuchsiz harakatlar bilan esa kuchsiz, urg'usiz hissalar ko'rsatiladi. Shuningdek kuchsiz harakatlar kuchli harakatga tayyorlanish uchun ham xizmat qiladi. Undan tashqari, qo'lning kuchsiz harakatlari musiqiy asarning xor ijrochilar va damli cholg'uchilar o'pkalarini havoga to'ldirishlari kerak bo'lgan paytga mos tushadi. Aksincha, kuchli qo'l harakatlarining kuchi va quvvati nafas chiqarish, ya'ni xor ijrochilar kuylaydigan, damli cholg'uchilar esa chaladigan paytga to'g'ri keladi.

Metrli sxemalarni o'rganish, umuman sxemalar strukturasi bilan tanishish davridayoq boshlanadi. Dirijyorlik sxemalari aniq va oddiy harakatlarga asoslanadi. Bu dirijyor uchun qulay bo'lib, ijrochilar jamoasiga uning istaklarini yaxshi tushunishga imkon yaratadi. Bu asos qanchalik oddiy, aniq, lo'nda va ma'nodor bo'lsa, qo'l harakati yordamida partituraning turli talablarini yetkazish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi, dirijyorning qo'l harakati esa shunchalik chuqur ma'noga ega bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, xar qanday o'lchamdag'i taktni kuchli va kuchsiz xissalar tashkil etadi. Murakkab va aralash metrning taktida nisbatan kuchli hissalar ham bo'ladi. Ularning barchasi dirijyorning qo'l harakati bilan ko'rsatiladi. Birinchi kuchli hissa — taktning asosi bo'ladi. Ushbu hissa uning holati va xarakteriga mos harakat bilan, ya'ni boshqalarga nisbatan faolroq tarzda ifoda etilishi bilan ajralib turadi. Qo'lning tepadan pastga keskin harakati ana shu talabga javob beradi. Qo'lning pastga

harakati eng oddiy va kuchlisidir. Unda qo'lning o'z og'irligiga mushaklar qisqarishidan kelib chiqadigan kuch ham qo'shiladi. Bunday harakatda birinchi hissaning boshqalardan ajralib turuvchi kuchi va faol xarakteri alohida ko'rsatib o'tiladi. Takt berishning ko'rgazmali bo'lishi uchun taktning kuchli hissasi yetarli darajada chuqur, aniq va eng asosiysi, u taktning boshqa hissalariga qo'shilib ketmaydigan bo'lishi lozim. Kuchsiz va nisbatan kuchli hissalarga kelsak, ular u yoki bu metrning sxemasiga qarab qo'lning chapga, o'ngga yoki tepaga harakati bilan beriladi. Taktning barcha kuchsiz hissalari keyingi hissaga tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Shu bois har bir keyingi harakat avvalgilari bilan uzviy bog'liq bo'lishi, ulardan kelib chiqishi kerak.

Bunga eng yorqin misol keltirish uchun taktning oxirgi hissasini olaylik. U o'z holati bo'yicha taktdagi eng kuchsiz bo'lib, shu bilan birga keyingi harakatlarga kuchli tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Shunday ekan, so'nggi hissa bu — keyin boshlanadigan birinchi hissaning boshlanishi desak ham xato bo'lmaydi. Haqiqatan ham, birinchi hissa xarakteri undan avval bo'lgan so'nggi kuchsiz hissaga bog'liq. Shu bois taktning so'nggi hissasi boshqa kuchsiz hissalarga nisbatan keskinroq harakat bilan ko'rsatiladi va doimo tepaga yo'naltiriladi.

